

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336:330.3(575.1)

ASAMOVA ZILOLA SAIDAXROR QIZI

INVESTITSIYA SIYOSATINING AMALGA OSHIRISHDA DAVLATNING
ROLINI OSHIRISH YO‘LLARI

70410401 — “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n.,dots N.Tilabov


TOSHKENT-2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “ _____ ”
kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

_____ -sonli bayonnoma “ _____ ” _____ 2023 y.


Kafedra mudiri

Xudoyqulov.X.X.


_____ imzo _____ sana


Ilmiy rahbar:

Tilabov.N.T


_____ imzo _____ sana

Talaba:

Z.S.Asamova


_____ imzo _____ sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2024 yil “ _____ ” _____

№ _____ raqami bilan ro‘yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda erkin iqtisodiy zonalar mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirib, tadbirkorlikni rivojlantirishning zamonaviy, qulay va samarali usuliga aylanib bormoqda. Mamlakatimiz hududlarining ishlab chiqarish, resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning alohida o'rni bor. Erkin iqtisodiy zonalar – davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi.

Xususan, bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalarga investitsiyalarni joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emas. Investitsiya loyihalarini ko'rib chiqishda yangidan tashkil etilayotgan ish o'rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherik va investor-mamlakatning mavjudligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda talab qilinishi, eksport hajmi, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi hisobga olinmayapti. Shunday ekan, investitsiya jarayonlarini rivojlantirish, ularni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalarning o'rni va roli oshirish mexanizmlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib, mamlakatimizdagi mavjud erkin iqtisodiy zonalarga investitsiyalarni jalb etishning 2016 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davrdagi ko'rsatkichlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zonalar, investitsiyalar, investitsiya faoliyati, investitsiya loyihasi, moliyalashtirish, xorijiy investorlar, maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari

SUMMARY

In recent years, free economic zones have increased the efficiency of using the economic potential of our country and are becoming a modern, convenient and effective way of developing entrepreneurship. Free economic zones have a special role in ensuring comprehensive and effective use of the production and resource potential of the regions of our country, development of transport, engineering and communication and social infrastructure. Free economic zones are specific areas where preferential tax, financial, and legal conditions are introduced for economic and foreign economic activity in accordance with interstate agreements or special laws. It will be organized for the purpose of attracting foreign and local entrepreneurs, and the necessary production and business infrastructure will be established in them.

In particular, today there are no clear criteria for selecting projects for placing investments in free economic zones. When considering investment projects, the number of newly created jobs, the presence of a potential foreign partner and investor-country, the demand for the produced product in the domestic and foreign markets, the volume of exports, as well as the degree of localization of production are not taken into account. Therefore, it is very important to study the mechanism of increasing the role and role of free economic zones in the development of the investment market, attracting the capital to the economy of our country.

As an object of research, a multiplicity of investments in existing free economic zones in our country from 2016 to 2022 was used.

Key words: *free economic zones, investment, investment activity, investment project, financing cooperation, foreign investors, special economic zones, small industrial zones*

4.3. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalarning hozirgi kundagi holati tahlili	52
V BOB. XULOSA.....	62
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	62
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	62
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	65
5.4. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	67

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Milliy iqtisodiyotimizni transformatsiyalash jarayonida mamlakatning iqtisodiy tarmoqlariga investitsiyalarni faol jalb etish respublikaizning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu bois mamlakat iqtisodiyotini, investitsiya faoliyatini yanada yuksaltirish borasida jahon tajribasida muvaffaqiyatli o‘rin egallagan erkin iqtisodiy zona (EIZ)lar faoliyatini takomillashtirish bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalarni jalb qilishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirishdan asosiy maqsad nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini oshirish bo‘yicha muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi, milliy iqtisodiyotni xalqaro bozorga integratsiyalashgan holda zamonaviy yuqori texnologiyali, import o‘rnini bosuvchi va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarni malakali mutaxassislar tomonidan zamonaviy texnologiyalarda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va quvvatlarni oshirish hisoblanadi. Erkin iqtisodiy hududlarni milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning samarali vositasiga aylantirish hamda ularga investitsiyalar, xususan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish uchun bugungi kunda respublikada ularni rivojlantirish bo‘yicha aniq strategiyani ishlab chiqish, hamda rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularda faoliyat yuritayotgan investorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Xususan, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoev «Tadbirkorlar juda katta umid bilan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida qiyin masala bo‘lgan infratuzilmani hal bo‘lishini kutib o‘tiribdi. Shuning uchun O‘zbekiston tarixida birinchi marta zonalarga 1,6 trln. pul ajratildi. Bu – yo‘l infratuzilmasi, elektr energiya, gaz va suv ta‘minoti, umuman, nimaiki lozim bo‘lsa o‘sha masalalarni joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rish kerak. Albatta, joylardagi iqtisodiy zonalarda infratuzilmalar yo‘qligi tabiiy. Alohida ishchi guruh tuzib, har